

**Bugun Muqimiy nomidagi
O'zbekiston davlat
akademik musiqali teatrida
O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti
“Musiqali teatr san'ati”
kafedrasi filialining
tantanali ochilish marosimi
bo'lib o'tdi.**

Ushbu filialga O'zbekiston xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqova nomi berildi.

Marosim avvalida Madaniyat vaziri o'rinnbosari Murodjon Majidov so'zga chiqib bu tashabbus talabalarning kelgusida yetuk ijodkor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishini, bu talabalarning bevosita amaliyot bilan chambarchas bog'lanishlariga xizmat qilishini qayd etib o'tdi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bugun yurtimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi teatr san'ati rivoji, uning to'ma'nodagi ibratxonaga aylanishi uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilayotgani, xususan, 2024-yil 22-noyabr kuni qabul qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash choratadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori soha taraqqiyotida tarixiy davrni boshlab bergenini ta'kidladi.

Ushbu qaror yurtimiz teatrlariga mutaxassis-kadrlar yetkazib

beruvchi oliy ta'lif muassasasi sifatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bugungi faoliyati uchun ham dasturul amalga aylanganini, jumladan filialning ochilishi ham ushbu qaror ijrosini ta'minlashga qaratilganini, kelgusida boshqa kafedralarning ham turli teatrлarda filiallari tashkil etilishi rejalshtirilayotganini ma'lum qildi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali drama teatri direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Azim Mullaxonov bu filial bir tomondan kelgusida talabalarning ijodiy mahoratining yanada sayqallanishi va amaliy tajribaga ega bo'lishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan teatrning kelgusida yetuk mutaxassis-kadrlarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Shundan so'ng teatr va institutning yosh ijodkorlari tomonidan tayyorlangan ariya va duetlarga navbat berildi.

Kafedra filiali uchun ajratilgan xona talabalar uchun juda ham qulay shaklda hamda milliylik asosida jihozlangan bo'lib, jadid bobolarimizning portretlari, Lutfixonim Sarimsoqovaning hayoti va ijodiga oid fotosuratlar, musiqali teatr san'atining ulug' darg'alarining suratlari bilan bezatildi.

Shuningdek, kitob javoni ham bo'lib, undan sohaga oid muhim darsliklar, qo'llanmalar va mumtoz adabiyotimiz namunalari o'rinnegallagan. Nodirbek Sayfullayev ushbu kitob fondini yanada boyitilishini va kelgusida shaxsan o'zi kitoblar sovg'a qilishini ma'lum qildi.

Ushbu xonaga televezor ham o'rnatilgan bo'lib, musiqali teatr tarixidagi eng durdona asarlarni tomosha qilish va tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

Lutfixonim Sarimsoqovaning shogirdlari O'zbekiston xalq artistlari Mehri Bekchanova va Odina G'oziyevalar filialga ustozning nomi berilganidan bag'oyat mamnun ekanligini ta'kidlab, uning insoniy fazilatlari hamda o'zbek musiqali teatri rivojida tutgan o'rni haqida fikr bildirishdi. Bu

filialga kelib tahsil oladigan o'quvchilar bilim bilan birgalikda albatta, ustozlardan tajriba ham o'rganishlarini, bu soha rivoji uchun muhimligini talkidlab, tashabbus uchun minnatdorchilik bildirishdi.

2025-yil 19-aprel kuni soat 11:00 da dissertatsiyasi muhokamasi

E'LON

**2025-yil 19-aprel kuni soat 11.00 da O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI
PHD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI**

KUN TARTIBI:

Ergashev Omonboy Turgunbayevichning 13.00.02 – Ta'lrim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san'atshunoslik) ixtisosligi bo'yicha "Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarining badiiy tafakkurini takomillashtirish texnologiyalari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 11.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

Xitoy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda

Ma'lumki, O'zbekiston bugun ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz xalqaro maydonda tobora nufuzli davlatga aylanib bormoqda.

Xususan, Davlatimiz Rahbarining 2024-yil yanvar oyida Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirilgan davlat tashrifi davomida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha hujjatlar qabul qilingan edi.

Ayniqsa, "O'zbekiston-Xitoy" birinchi ta'lim forumi ikki davlatning 150 ta oliy ta'lim muassasalari rektorlarini bir davraga jamlagan tadbiriga aylandi

Forumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda bir qator Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta'lim muassasalari hamkorlik kelishuvlariga erishgan edi.

Ushbu kelishuvlarni institut imkoniyati va ta'lim yo'naliшlariga moslagan holda qayta ko'rib chiqish hamda yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligidagi delegatsiya Xitoy Xalq respublikasida xizmat safarida bo'lib qaytdi.

Safar davomida vakillarimiz Xitoyning 5 ta nufuzli oliy ta'lim muassasida bo'lib, ularning rahbariyati bilan muloqot qildi hamda bir qancha hamkorlik kelishuvlari imzoladi. Shuningdek, Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazida ham uchrashuv o'tkazildi.

Dastlab **Tianjin chet tillari universitetida** rektor, professor Li Yingying bilan samimiyl muloqot bo'lib o'tdi hamda hamkorlik kelishuvi imzolandi. Shuningdek, hamkorlikda pyesalar yaratish va sahnalashtirish masalasi ham muhokama qilindi.

Bugungi kunda ushbu universitet O'zbekistonning 28 ta oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Umumiy hisobda esa 60 ta davlatdan 350 ta oliy ta'lim muassasasi bilan shartnomalari bor. Hozirda u yerda 3200 dan ortiq xorijiy talaba tahsil olmoqda. Universitetda 11 ming bakalavr, 1000 nafar magistrant bor.

Universitetda jami 58 ta bakalavriat yo'nalishi bo'lib, shundan 31 tasi tillarga oid, shuningdek, 50 ta magistratura mutaxassisligi mavjud. Shuningdek, ushbu universitetda menejment, san'atshunoslik va jurnalistika yo'nalishlari mavjud.

Universitet rektori Li Yingying xonim vakillarimizni universitetning tarixi va yutuqlari aks etgan muzeyi bilan tanishtirdi.

Bundan tashqari, ular ushbu oliy ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan o'quv jarayonlari, talaba va professor-o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Xizmat safari davomida hamkorlik o'rnatilgan yana bir oliy ta'lim muassasasi **Tianjin san'at va media kolleji** bo'ldi.

Bu muassasada ijrochi direktor Li Xiaohua boshchiligidagi oliy ta'lim muassasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazilib, ikki tomonlama hamkorlik aloqalari o'rnatish, birqalikda amalga oshiriladigan turli tadbirlar muhokama qilindi hamda

hamkorlik kelishuvi imzolandi.

Kollej 2004-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda 7 ta maktab (fakultet) bor, ulardan 6 tasi san'atga, jumladan, musiqa va raqsga, drama va vokalga, radio va televide niyega, multimedia va raqamli san'atga ixtisoslashgan.

Shuningdek, ijrochi direktor O'zbekiston davlat davlat san'at va madaniyat instituti bilan hamkorlik qilishdan mamnun bo'lishini ta'kidladi.

Rasmiy uchrashuvdan so'ng vakillarimiz ushbu oliy ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan o'quv jarayonlari, talaba va professor-o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Dastlab sun'iy intellektdan musiqa san'atida foydalanish mavzusida ma'ruza tinglashdi. Keyin vokal bo'yicha yakka dars o'tiladigan xonada Xor yo'nali shida tahsil oluvchi 2-kurs talabalari ijrosida Xitoy milliy qo'shiqlarini tinglashdi. So'ng elektron musiqa auditoriyasini ko'zdan kechirishdi.

Shuningdek, televide niye va rejissura yo'nali shida tahsil oluvchi talabalar joylashgan binoda dublyaj aktyorlarining ishi va televide niyening jonli efirida ishlash bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatishdi. Kutubxonaga ham tashrif buyurib, bu yerda kitobxonlarga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Vakillarimiz **Tyanjin musiqa konservatoriyasida** ham bo'lib, vitse president Bao Yang bilan uchrashdi hamda ikki oliy ta'lim muassasasi o'rta sidagi aloqalarni hamkorlik kelishuvi bilan mustahkamlashga, uning doirasida ilmiy-ijodiy va o'quv jarayonlarida hamkorlik aloqalarini yuqori saviyada davom ettirishga kelishib olindi.

Samimi y uchrashuvdan so'ng delegatsiya konservatoriyaning kampusi hamda uning hududida joylashgan ikkita konsert zalini ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng yakka dars o'tiladigan auditoriyalarda bo'lishdi hamda talabalarning o'zlariga auditoriyalarni bron (band) qilish imkonini beradigan tizim bilan tanishishdi.

Ma'lumot o'rnida, Tyanjin musiqa konservatoriysi 1950-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda konservatoriyada 3200 ga yaqin talaba tahsil oladi va 10 ta kafedrada 450 nafar o'qituvchi faoliyat yuritadi. Asosan barcha yo'naliishlar musiqa ta'limi bilan bog'liq, lekin musiqadan tashqari, ularda menejment, xoreografiya va teatr san'ati yo'naliishlari ham mavjud.

Safar davomida istiqbolli kelishuv imzolangan yana bir oliyogoh **Xebey kommunikatsiya universiteti** bo'ldi.

Bu yerda universitet prezidenti Li Jinyun xonim boshchiligidagi oliy ta'lim muassasasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi hamda hamkorlik kelishuvi imzolandi. Shundan so'ng vakillarimiz universitet kampusini ko'zdan kechirishdi.

Dastlab vakillarimiz Kino va televide niye kollejiga tashrif buyurishdi hamda sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llaniladigan o'quv auditoriyalarini tomosha qilishdi. Shuningdek, tomoshabinlarning filmga bo'lgan reaksiyasini kuzatish uchun maxsus sensorlar bilan jihozlangan kichik kinoteatrni ko'rishdi. Har xil sig'imga ega bo'lgan uchta namoyish paviloniga tashrif buyurishdi. To'liq haqiqiy televide niye studiyasini, ovoz yozish va dublyaj studiyasini ko'zdan kechirishdi va haqiqiy dekoratsiyalar va virtual reallik elementlari bilan filmlar suratga olish mumkin bo'lgan studiya faoliyatini ham kuzatishdi.

Shundan so'ng, delegatsiya Tasviriy san'at va dizayn akademiyasiga tashrif buyurdi hamda tasviriy san'at yo'naliishida tahsil olayotgan talabalar ijod qiladigan o'quv auditoriyalarini ko'rishdi. Bundan tashqari, teatr qo'g'irchoqlari, kashtachilik va kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqariladigan ustaxonalar faoliyati bilan tanishishdi.

Ma'lumot o'rnida, Xebey kommunikatsiya universiteti 2000-yilda tashkil etilgan bo'lib, Xitoyning birinchi xususiy universiteti hisoblanadi. Bugungi kunda bakalavriat, magistratura va PhD yo'naliшlarida kadrlar tayyorlaydi.

Ayni paytda universitetda 30 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Bakalavriatda 50 ta, asosan madaniyat va san'at sohalari bilan bog'liq yo'naliшlar bor. Magistratura bo'yicha san'at va jurnalistika, PhD bo'yicha esa kino mutaxassisligi mavjud.

Delegatsiyaning Xitoy Xalq Respublikasiga xizmat safari davomida navbatdagi manzili – Xitoyning shimoliy-sharqida joylashgan Jilin shahri bo'ldi.

Bu yerda **Jilin xalqaro ta'lim universiteti** prezidenti Sin Xe xonim va universitet prorektori janob Van Chjigolar bilan uchrashuv o'tkazildi va hamkorlik kelishuvi imzolandи.

Rasmiy qismdan so'ng, delegatsiya universitet kampusini ko'zdan kechirdi. Dastlab, ular kampus hududida joylashgan 5 qavatli kutubxona binosida bo'lishdi.

Ta'kidlash joizki, kutubxona fondi taxminan 1 million nomdagi bosma adabiyotlar va 1,7 million nomdagi elektron nashrlardan iborat. Binoning dizayni shunday ishlab chiqilganki, unda o'quv zallari va ovoz chiqarib o'qish zallari, individual o'quv xonalari hamda kichik guruhlarda mustaqil mashg'ulotlar olib borish uchun mo'ljalangan xonalar mavjud. Shuningdek, magistraturaga kirishni rejalashtirayotgan talabalar uchun 600 o'ringa ega alohida zal ham tashkil etilgan.

E'tiborga molik maskanlardan yana biri – "global qishloq" bo'lib, u yerda talabalar xorijiy tillarni o'rganish jarayonida to'liq madaniy muhitga singib ketish imkoniyatiga ega.

Delegatsiya shuningdek, talabalar turar joylari bilan ham tanishib, kampus hududida talabalarga yaratilgan sharoitlarni

ko'zdan kechirdi. Sayohat yakunida mehmonlar san'at va turizm maktabi joylashgan binoga tashrif buyurib, xitoy an'anaviy san'ati bo'yicha talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini tomosha qildilar..

Jilin xalqaro ta'lif universiteti xususiy universitet bo'lib, u 1995-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda ushbu universitetda taxminan 14 ming nafar talaba tahsil olmoqda.

So'nggi 5 yil davomida universitet xususiy gumanitar universitetlar reytingida birinchi o'rinni egallab kelmoqda hamda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidagi 200 dan ortiq oliy ta'lif muassasalari, jumladan, O'zbekistonning 6 ta universiteti bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, ta'lif sohasida 10 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO bilan hamkorlik aloqalariga ega.

Shuningdek, xizmat safari davomida Nodirbek Sayfullayev **Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazining** hammuassisi Elli Ma xonim bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bugungi kunda har bir oliy ta'lif muassasasi oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Uchrashuvda ayni shu jihatlarga e'tibor qaratildi.

Markaz madaniyat va san'at sohalariga katta qiziqish bildirayotgani va xitoylik talabalar hamda magistrantlar uchun bizning institutimizda o'qishni tashkil etish masalasini ko'rib chiqishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Ma'lumot o'rnida, Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazi ta'lif sohasida 20 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat olib borayotgan bo'lib, xitoylik yoshlarni AQSH, Yevropa va

Osiyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'qishini tashkillashtirish, shuningdek, boshqa davlatlar yosHLarini Xitoy oliygohlarida tahsil olishiga ko'maklashish bilan shug'ullanadi.

Umuman olganda, ushbu safar institutning xalqaro aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadigan uchrashuv va hamkorlik kelishuvlariga boy bo'ldi. Eng muhimi hamkorlik o'rnatilgan oliygohlar nafaqat Xitoy, balki jahonda ham o'z mavqeyiga ega hisoblanadi.

Tashrif davomida vakillarimiz ushbu oliygohlarda o'quv jarayonlariga tadbiq etilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ham yaqindan tanishib, tajriba orttirishdi.

Yana bir muhim jihatni alohida qayd etish joziki, bugungi kunda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi Xitoy Xalq Respublikasida ham bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda o'zbek san'ati va madaniyatiga qiziqish yuqori. Vakillarimiz tashrif buyurgan barcha oliy ta'lim muassasalari rahbariyati o'rnatilgan hamkorlikdan mamnun bo'lib, kelgusida bu hamkorlikni yanada kengaytirish taklifini bildirishdi.

Buning yagona sababi bugun yurtimizda Muhtaram Yurtboshimiz rahnomaliklarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda jahon hamjamiyati bilan olib borilayotgan oqilonqa tashqi siyosat desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

2025-YIL 4-aprel kuni Yuldashev Izzat (PhD) ilmiy darajasini olish dissertatsiyasi muhokamasi

E'LON

**2025-YIL 4-APREL KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMUY KENGASHI**

MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Yuldashev Izzat Ikramovichning 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'zbek etnomadaniyatida sinkretizm: nazariya va amaliyot" mavzusidagi san'atshunoslik bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 11.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.

2025-YIL 4-aprel kuni Ergashev M. (PhD) ilmiy darajasini olish dissertatsiyasi muhokamasi

E'LON

**2025-YIL 4-APREL KUNI O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMUY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.SAN.121.01 RAQAMLI ILMUY KENGASH ASOSIDAGI**

BIR MARTALIK ILMUY KENGASH MAJLISI BO'LIB O'TADI

KUN TARTIBI:

Ergashev Murobek Ikromovichning 13.00.02 – Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta'limi) ixtisosligi bo'yicha "Musiqa ta'limida o'quvchilarining kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi muhokamasi.

Majlis O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "A" binosi,

2-qavat, majlislar zalida 14.00 da boshlanadi.

Dissertatsiya qo'lyozmasi bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin.